

JCPM



Journal of clinical and preventive medicine

FERGHANA MEDICAL INSTITUTE OF PUBLIC HEALTH

№1 2022 y

ISSN 2181-3531

www.fjsti.uz

 /farjsti rasmiy

 /fjsti.uz

 /ferghana_medical_institute

 /fjstiuz



“KLINIK VA PROFILAKTIK TIBBIYOT JURNALI”

(«Журнал клинической и профилактической медицины»)

ILMIY JURNALI TAHRIR HAY'ATI

Bosh muharrir: SIDIKOV AKMAL ABDUKAXXAROVICH - *t.f.d., professor*

Bosh muharrir yordamchisi: KADIROVA MUNIRA RASULOVNA

Mas'ul kotib: ASHUROVA MANZURA DJALOLDINOVNA

2022. № 1

TAHRIR KENGASHI

Ye.S.Bogomolova — (Rossiya) Privolsk tadqiqotlar tibbiyot universiteti prorektori, tibbiyot fanlari doktori, professor

Y.N.Nishonov — tibbiyot fanlari doktori, professor

S.T.Ibodzoda — (Tojikiston) TDTU prorektori, tibbiyot fanlari doktori, professor

A.A.Suxinin — Operativ xirurgiya va topografik anatomiya kafedrasi mudiri, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent (KubDTU)

I.L. Privalova — tibbiyot fanlari doktori, professor

Q.M.Gulzoda — Tojikiston davlat tibbiyot universiteti rektori, tibbiyot fanlari doktori, professor

Mir Axmad Manzur — (Hindiston) professor

G.I.Shayxova — tibbiyot fanlari doktori, professor

F.L.Salomova — tibbiyot fanlari doktori, professor

N.J.Ermatov — tibbiyot fanlari doktori, professor

N.O.Axmadaliyeva — tibbiyot fanlari doktori, dotsent

O.Ye.Guzik — Belarus tibbiyot akademiyasi gigiyena va tibbiy ekologiya kafedrasi mudiri, tibbiyot fanlari doktori, dotsent

R.Shermatov — tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

V.Yakubov — tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

S.P.Rubnikovich — Belarus DavTI rektori, tibbiyot fanlari doktori, professor

B.Mirzayev — tibbiyot fanlari doktori, professor

G.N.Raimov — tibbiyot fanlari doktori, professor

Y.M.Gain — Belarus tibbiyot akademiyasi prorektori, tibbiyot fanlari doktori, professor

A.A.Suxinin — Operativ xirurgiya va topografik anatomiya kafedrasi mudiri, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent (KubDTU)

D.N.Kolobiets — BelMOPO, tibbiyot fanlari doktori, professor

Xalafli Navruz gizi Xatira — Ozarbayjon tibbiyot universiteti epidemiologiya kafedrasi dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi

E.A.Valchuk — Belarus oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tibbiyot akademiyasi kafedrasi professori

A.N.Chikanov — (Belarus) tibbiyot fanlari doktori, professor

I.N.Moroz — (Belarus) tibbiyot fanlari doktori, professor

V.I.Lazarenko — Kursk DTU rektori, tibbiyot fanlari doktori, professor

G.S.Mal — Kursk DTU farmakologiya kafedrasi mudiri, tibbiyot fanlari doktori

M.Ma'rupova — tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

V.T. Minchenyan — tibbiyot fanlari doktori, professor

I.G.Tarutin — (Belarus) tibbiyot fanlari doktori, professor

S.Satorov — (Tojikiston) TDTU mikrobiologiya, immunologiya va virusologiya kafedrasi professori, Abu Ali ibn Sino

Xosilova Dilnoza — (AQSH) tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

F.X.Rasulov — tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

NASHRGA TAYYORLOVCHILAR:

M.D.Ashurova, D.T.Ismoilov



FARG'ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

Бичими 60x84^{1/2}. Оқ силлиқ қоғоз. Шартли босма табоғи 11,16.

Нашр табоғи 11,48. Алади _____. Бузуртма № _____

MUNDARIJA / CONTENT/ СОДЕРЖАНИЕ

<i>Сидиков А.</i> ТИББИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ДАВЛАТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ОМИЛИ СИФАТИДА.....	4-7
<i>Ботиров М.Т., Алексеев Ю.Г., Карабаев М.К., Луцкич П.Е., Минченя В.Т., Мамажонов М.М.</i> ЭНДОПРОТЕЗЫ НА ОСНОВЕ NiTi И ИХ БИОЛОГИЧЕСКАЯ СОВМЕСТИМОСТЬ (Обзор литературы).....	8-14
<i>Саломова Ф.И., Ахмадалиева Н.О., Хайитова Ш.Қ., Мажидов Р.А.</i> ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ ПРОФЕССОР-ЎҚИТУВЧИЛАРИ ВА ТАЛАБАЛАРИНИНГ МАСОФАВИЙ ЎҚИТИШ ТИЗИМИГА МУНОСАБАТИ.....	15-18
<i>Iminahunova I.H.</i> APPROACHES TO THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS IN THE STUDY OF FOREIGN LANGUAGES IN MEDICAL INSTITUTES.....	19-22
<i>Каттаханова Р.Ю., Махмудов Н.И., Ниматов Ш.М., Тургунбоев Ш.Б.</i> РЕЗУЛЬТАТЫ ПРИМЕНЕНИЯ ТРОМБОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРАПИИ ПРИ ОСТРОМ ИНФАРКТЕ МИОКАРДА НА ДОГОСПИТАЛЬНОМ И ГОСПИТАЛЬНОМ ЭТАПЕ... ..	23-28
<i>Абдуллаев Б.С., Хамидова М.Н</i> ИЗУЧЕНИЕ ГЕНОВ В ДИАГНОСТИКЕ И ЛЕЧЕНИЕ ПРИ САХАРНОМ ДИАБЕТЕ.....	29-34
<i>Шерматов Р.М., Бойназаров А.А.</i> БОЛАЛАРДА ЎРТА ОҒИР КЕЧУВЧИ ЗОТИЛЖАМНИНГ КЛИНИК КЕЧИШИ ВА ЭРТА ДИАГНОСТИКАСИ.....	35-38
<i>Садиков У.Т., Суяров Ш.М.</i> АРТЕРИАЛЬНАЯ ГИПЕРТЕНЗИЯ, АССОЦИИРОВАННАЯ МАЛЯРИЕЙ (ОПЫТ РАБОТЫ В РЕСПУБЛИКЕ АНГОЛА).....	39-43
<i>To'xtarov B.E., Ablaqulov I.D., Maxmanazarov G.A., Valiyeva M.U</i> O'ZBEKISTONDA SIL KASALLIGINING EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	44-48
<i>Абдуганиева А.Ё.</i> ЎТКИР ИЧАК ИНФЕКЦИЯЛАРИ ЭТИОЛОГИК ОМИЛИНИНГ ЭПИДЕМИОЛОГИК ТАҲЛИЛИ.....	49-51
<i>©Ашурова М.Д., Муйдинова Ё., Исмоилов Д., Ахмедов Р., Мухаммадова Г.</i> ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕХНОЛОГИИ ПРОБЛЕМНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ (ПОО) В ПРАКТИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ГИГИЕНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН	52-55
<i>Абдувалиева Ф.Т., Азизова Ф.Л., Акромов Д.А., Шеркузиева Г.Ф</i> ОПТИМИЗАЦИЯ И ЭКОЛОГО-ГИГИЕНИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВОДОСНАБЖЕНИЯ НАСЕЛЕННЫХ ПУНКТОВ (Обзор литературы).....	56-60
<i>Rayimov G.N., Kkholmukhamedov J.R., Abduazizov E.Q., Yigitaliyev A.B., Qodirova G.R.</i> MINIMALLY INVASIVE TECHNOLOGIES IN THE DIAGNOSIS AND TREATMENT OF PATIENTS WITH ACUTE CHOLECYSTITIS.....	61-63

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI VA TALABALARINING MASOFAVIY O'QITISH TIZIMIGA MUNOSABATI

F.I.Salomova, N.O.Axmadaliyeva, Sh.Q.Xayitova, R.A.Majidov

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Izox: ©Salomova F.I., Axmadaliyeva N.O., Xayitova Sh.Q.,Majidov R.A.

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI VA TALABALARINING MASOFAVIY O'QITISH TIZIMIGA MUNOSABATI
KPTJ.-2022-T.1-№1-CQabul qilindi: 21.01.2022
Ko'rib chiqildi: 07.05.2022

Nashrga tayyorlandi: 20.05.2022

Annotatsiya. Maqolada Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchilari va talabalar orasida o'qitish tizimidagi masofaviy ta'limga bo'lgan munosabati va masofaviy ta'limning o'ziga xos tomonlarini aniqlash maqsadida anonim so'rovnomani natijalari yoritilgan bo'lib, 84 % professor o'qituvchilar va 72% talaba yoshlarning fikrlariga qaraganda, masofaviy ta'lim tibbiyot o'qitish tizimida samarasiz ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: talabalar, masofaviy ta'lim, Moodle tizimi.

ОТНОШЕНИЕ ПРОФЕССОРСКО-ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКОГО СОСТАВА И СТУДЕНТОВ ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ К СИСТЕМЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Ф.И.Саломова, Н.О.Ахмадалиева, Ш.Қ.Хайитова, Р.А.Мажидов

Ташкентская медицинская академия

Для цитирования: © Саломова Ф.И., Ахмадалиева Н.О., Хайитова Ш.Қ., Мажидов Р.А.

ОТНОШЕНИЕ ПРОФЕССОРСКО-ПРЕПОДАВАТЕЛЬСКОГО СОСТАВА И СТУДЕНТОВ ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ К СИСТЕМЕ
ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ ЖКМП.-2022.-Т.-№1.-СПоступила: 21.01.2022
Одобрена: 07.05.2022

Принята к печати: 20.05.2022

Аннотация. В статье освещены результаты анонимного опроса с целью определения степени дистанционного образования в системе преподавания среди преподавателей и студентов Ташкентской медицинской академии и специфических аспектов дистанционного образования. 84% преподавателей-профессоров и 72% студенческой молодежи считают, что дистанционное образование неэффективно в системе медицинского образования.

Ключевые слова: студенты, дистанционное обучение, система Moodle

THE ATTITUDE OF THE FACULTY AND STUDENTS OF THE TASHKENT MEDICAL ACADEMY TO THE DISTANCE LEARNING SYSTEM

F.I.Salomova, N.O.Akhmadaliyeva, Sh.K.Khaitova, R.A.Majidov

Tashkent Medical Academy

For citation: © Salomova F.I., Akhmadaliyeva N.O., Khaitova Sh.K., Majidov R.A.

THE ATTITUDE OF THE FACULTY AND STUDENTS OF THE TASHKENT MEDICAL ACADEMY TO THE DISTANCE LEARNING SYSTEM
JCPM(Fergana).-2022.T.1.№1.-СReceived: 21.01.2022
Revised: 07.05.2022

Accepted: 20.05.2022

Annotation. The article highlights the results of an anonymous survey to determine the degree of distance education in the teaching system among teachers and students of the Tashkent Medical Academy and specific aspects of distance education. 84% of teachers-professors and 72% of students believe that distance education is ineffective in the medical education system.

Keywords: students, distance learning, Moodle system.

Dolzarbligi

Covid-19 pandemiyasi sharoitida o'z-o'zini izolyatsiya qilish - bu kasallikka qarshi kurashishning samarali usullaridan biri. Nafaqat yurtimizda,


balki dunyoning ko'plab mamlakatlari oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning masofaviy shakli yo'lga qo'yildi.

Vitebsk davlat tibbiyot universiteti tibbiy va

biologik-fizika kafedresi Moodle masofaviy ta'lim tizimidan faol foydalanadi [1,2].

Masofaviy ta'lim o'qituvchi va talabalardan qator yangi talablarni bajarishni talab etdi. Masalan, o'qituvchilar uchun yangi talablarni, an'anaviy bo'lmagan usullarda ta'lim berish, talabalarni masofadan turib boshqarish, ularning yuklagan vazifalarni tekshirib baholash, masofaviy ta'lim texnologiyalaridan (MTT) faol foydalanish, o'qituvchi o'zini o'zi rivojlantirish imkoniyatlari oshdi, talabaga o'zlashtirishi oson bo'lishi uchun tezkor va aniq mulohaza taqdim etadi. TTA professor-o'qituvchilari tomonidan masofaviy ta'lim sifatini oshirish va yanada rivojlantirish bo'yicha juda katta ishlar olib borilgan. Fanlar bo'yicha turli xil ko'rinishda matnli, audio va video ma'lumotlar joylashtirib borildi. Bundan tashqari, TTA Moodle platformasi yaratuvchilari tomonidan platformada ishlash bo'yicha video dars ishlab chiqildi va professor o'qituvchilar hamda talabalarga havola etildi. Talabalar uchun esa birmuncha qulayroq ta'lim sifatida gavalandi, masalan, masofaviy ta'limda an'anaviy ta'limga nisbatan kam sarf-xarajatli bo'lishi, masofaviy ta'limda vaqtdagi va joydagi erkinlik sababli oldindan rejalashtirish va amalga oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Biroq afzalliklar bilan bir qatorda tibbiyot tizimida masofaviy ta'limning o'ziga xos bo'lgan kamchiliklari mavjudligini yoddan chiqarmasligimiz lozim, ular tibbiyotni o'qitish tizimida amaliy ko'nikmalar o'zlashtirishda to'g'ridan-to'g'ri laborator asbob-uskunalar bilan ishlash, modeli sharoitlarda amaliy ko'nikmalarni bajarish, bemorlar bilan ishlash imkonining yo'qligi tibbiyotda o'qitish tizimining effektivligini pasaytiradi.

Tadqiqotchilarning fikricha, masofaviy ta'limda, masofaviy ta'lim jarayoni, axborot texnologiyalarini qo'llashda oliy o'quv yurtlari professor-



1-rasm. Talabalar fanni o'zlashtirish uchun qulay bo'lgan elektron tizimlar

o'qituvchilarining (PO') hissiy charchog'iga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydilar [3].

Tadqiqot maqsadi

Toshkent tibbiyot akademiyasi professor o'qituvchilar va talabalarning masofaviy o'qitish tizimiga munosabatini o'rganish.

Tadqiqot obyektlari va usullari: Tadqiqot obyektlari bo'lib, Toshkent tibbiyot akademiyasi professor-o'qituvchilar tarkibining 55 nafari va 100 nafar talabasi (55 nafar o'g'il bola, 45 nafar qiz bola) xizmat qildi. Tadqiqotda elektron (Telegram ijtimoiy tarmog'i yordamida) va anketa-so'rovnoma usulidan foydalanildi.


Olingan natijalar va ularning muhokamasi: Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalari orasida ularning o'qitish tizimida masofaviy ta'limga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga bag'ishlangan anonim so'rov o'tkazildi.

So'rovnoma masofaviy ta'limning dolzarbligi va muammolari o'rganildi. Eng avvalo, masofaviy ta'limning talabalar uchun qulayliklari aniqlandi. 86% talaba Moodle platformasi mavzuni o'zlashtirishda ma'lum bir darajada foyda beryapti, deb hisoblaydi.


Talabalar fanni o'zlashtirishda fan bo'yicha ma'lumotlarning 65% TMA masofaviy ta'lim markazi (Moodle) veb-saytidan, 25% kafedraning elektron axborot tizimidan va elektron kutubxona tizimidan foydalanish orqali olinishini va bu, qulay ekanligini (tma.library.uz) ta'kidlashgan (1-rasm).

Fanlarni mustaqil o'rganish maqsadida o'quv-uslubiy materiallarni izlash chog'ida talabalarning ko'pchiligi TTA Moodle platformasidan va YouTube veb-saytidan foydalanganlar (2-rasm).

Masofaviy ta'limga o'tish vaqtida professor-o'qituvchilar va talabalarning ana'anaviy bo'lmagan o'qitish tizimiga moslashish darajasi o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, mart oyida boshlangan



2-rasm. Talabalar fanlarni mustaqil o'rganishda o'quv-uslubiy materiallarni izlashda foydalangan manbalar.



3-rasm. Talabalarning onlayn o'qitish tizimiga moslashish dinamikasi


onlayn ta'limda moslanish jarayonlari endi boshlang'ich nuqtasida bo'lgan, iyun oyigacha davom etgan, ta'til vaqtida esa dinamik ko'rsatkich tushganligini ko'rish mumkin (3-rasm).

“Qanday ta'lim shakli o'qitish tizimida samarali?”, “Masofaviy ta'limda mavzuni o'zlashtirishda qaysi platforma, veb-saytlardan keng foydalandingiz?”, “Masofaviy ta'limning qanday jiddiy kamchiliklari bor?”. Bu kabi savollarga talabalar quyidagicha javob berishdi.

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning 84% onlayn ta'lim effektivligi past va o'qituvchilarning 16% onlayn ta'lim offlayn ta'lim bilan birdek natijaviylikka ega ekanligini (4 - rasm), talabalarning 72% tibbiy ta'limda onlayn ta'lim samarali emasligini va ko'pchilik talabalar onlayn o'qishga istagi yo'qligini hamda 22% talabalar masofaviy o'qitish tizimida o'qish istagi borligini,



5-rasm. Talabalarning masofaviy ta'limga munosabati.



4-rasm. Onlayn ta'lim effektivligi offlayn ta'limga nisbatan past.

4-rasm. Professor-o'qituvchilarning tibbiyotga o'qitish tizimidagi masofaviy ta'lim shakliga munosabati

talabalarning atigi 6% aniq javob berishga qiynalishi aniqlandi (5 - rasm).

Vitebsk davlat tibbiyot universiteti professor-o'qituvchilarining 77,8% ham masofaviy ta'lim an'anaviy shakllari o'rnini bosa olmasligini, ta'lim jarayoni uchun faqat yordamchi rol, ya'ni qo'shimcha materiallar, diagrammalar, grafiklar, qo'shimcha nazariy ko'rinishdagi mashg'ulotlar mavzusi, o'quv videolari masofaviy o'qitish jarayonida eng samarali vositalarni moddiy ta'minlashga qodir, deb ta'kidlashadi [4].

So'rovnomada qatnashgan talabalar masofaviy ta'limning samarasiz ekanligini belgilovchi bir nechta sababni ko'rsatishdi. Masalan, internet tezligining pastligi, texnologik qurilmalar bilan ishlashdagi muammoga duch kelish mumkinligini, o'quv materiallarini mustaqil o'rganish uchun diqqatni jamlay olmaslik, ya'ni dangasalik, qiyinlik darajasi yuqori bo'lgan mavzularni tushunmaslik, talabalar o'qituvchining to'g'ridan to'g'ri muloqotiga muhtojlik sezishini va kursdoshlari bilan muloqotning kamligi va boshqa kamchiliklarni e'tirof etdilar.

Shuningdek, tadqiqotchilar talabalar o'rtasida ham onlayn ta'lim mavzusida qator tajribalar olib borishgan. Xususan, Vitebsk davlat universiteti o'qituvchi-professorlari Pendo L.V., Jiznevskaya N.G., Belyaeva L.E. pandemiya vaqtida universitet tomonidan yo'lga qo'yilgan Moodle platformasiga talabalar munosabatini o'rganish maqsadida anketa-so'rovnoma o'tkazgan. So'rovnomada “Moodle platformasidan qanchalik tez-tez foydalanasiz?”, “Moodle platformasida yana qanday yangiliklarni ko'rishni xohlar edingiz?”, “Sizning o'qish jarayoningiz sifati oshishiga Moodle platformasi yordam bera olyaptimi?”,

“Moodle platformasi an’anaviy ta’lim va o’qituvchi o’rnini bosa oladimi?” kabi savollar o’rin olgan. Olingan natijalar esa quyidagicha bo’lgan: patologik fiziologiya kafedrasida tahsil olayotgan talabalarning 48,4% har haftada, 12,1% talabalar har kuni, 38,1 % ba’zi vaqtlarda Moodle platformadan foydalanishi, talabalarning 5,5% esa bu platformaga umuman tashrif buyurmasligi aniqlangan. 73,4% talabalar tomonidan platformada test topshiriqlarini yanada ko’paytirish bo’yicha takliflarning 59,2% o’quv materiallarini, 62,3% video darslarini ko’paytirish xaqida bo’lgan. Shuningdek, 94,5% talaba Moodle platformasi ma’lum bir darajada mavzuni o’zlashtirishga yordam berayotganini ta’kidlashgan. Moodle platformasi an’anaviy ta’lim va o’qituvchi o’rnini bosa oladimi, degan savolga esa 116 nafar talabadan faqatgina 1 nafar talaba “ha” javobini bergan [4].

Xuddi shu so’rovnoma Toshkent tibbiyot akademiyasi talabari o’rtasida o’tkazilganda, natijalar Vitebsk instituti talabari javoblaridan birmuncha farq qildi. Pandemiya davrida talabalarning 58% Moodle platformasiga har kuni, 30% har hafta, 12% ba’zan tashrif buyurishini aytishgan.

“Moodle platformasida yana qanday yangiliklarni ko’rishni hohlar edingiz?” , degan savolga talabalarning 57% vaziyatli masalalarni, 12% test topshiriqlar sonini ko’paytirish, 23% nufuzli xorij tibbiyot institut professor-o’qituvchilarning video darslaridan platformaga joylashtirilsa, natijaviylakka erishish mumkinligini bildirishgan va 8% talabalar javob berishga qiynalishini aytishgan.

Shunday qilib, so’rovnoma o’tkazilgan barcha professor-o’qituvchilar va talabalar Moodle platformasi hozirgi pandemiya sharoitida ta’limni davom ettirish uchun juda yaxshi yechim ekanligini, ammo u o’qituvchi o’rnini bosa olmasligi, tibbiy ta’limda masofaviy o’qitish tizimining samaradorligi

past ekanligini birdek e’tirof etishdi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiyot tizimida o’qitishning masofaviy ta’lim usuli professor-o’qituvchilar ta’lim berish va talabalarning ta’lim olish darajasi pasayishini ko’rsatdi. Kelajakdagi pandemiyalar, turli xil iqtisodiy muammolar xavfi tug’ilgan sharoitlarda sog’liqni saqlash tizimida malakali shifokorlarni yetishtirish uchun onlayn ta’limning masofaviy ta’lim bilan gibrid modelidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini bildiradi.

Adabiyotlar

1. *Deykalo V.P., Konevalova N.Yu., Sin’kov G.G., Gidranovich A.V., Deryabina M.A., Jernosek A.K., Korolyov M.G., Rednenko V.V., Sirotko V.V., Taller V.A.* Distantionnoye obucheniye: opit organizatsii, problemy i puti resheniya // Vestnik VGMU, 2013, TOM 12, №4. S.156-159.
2. *Ibragimov I.M.* Informatsionnyye texnologii i sredstva distantsi-onnogo obucheniya / I.M. Ibragimov. – M.: Akademiya, 2007. – 336 s.
3. *Salomova F., Axmadaliyeva N., Sharipova S., Nigmatullayeva D., Majidov R.* Masofaviy ta’limning zamonaviy usul va texnologiyalari, ularni qo’llanilishida hissiy charchoqning o’ziga xos tomonlari// «Tibbiy ta’lim transformatsiyasi: megatrendlar» mavzusidagi XVII xalqaro o’quv-uslubiy konferentsiya materiallari to’plami, Toshkent, 2021y., 35-41 bet.
4. <https://www.vsmu.by/science/nil/cnil-history/32-materialy-konferentsij/materialy-internet-konferentsii-2014-g/1177-sistema-distantsionnogo-obucheniya-moodle-glazami-studentov-obuchayushchikhsya-na-kafedre-patologicheskoy-fiziologii-vitebskogo-gosudarstvennogo-meditsinskogo-universiteta.html> <https://docviewer.yandex.uz/view>

Muallif haqida ma’lumot:

SALOMOVA FERUZA IBODULLAEVNA — tibbiyot fanlari doktori, professor, Atrof muhit gigienasi kafedrasini mudiri
E-mail: fsalomova@mail.ru

AKHMADALIEVA NIGORA ODILOVNA — Atrof muhit gigienasi kafedrasini dosenti, t.f.d.,

Information about the author:

SALOMOVA FERUZA IBODULLAEVNA — Doctor of medical sciences, professor, Head of the Department of Environmental Hygiene, Ph.D.

E-mail: fsalomova@mail.ru

AKHMADALIEVA NIGORA ODILOVNA — Associate Professor of the Department of Environmental Hygiene, Ph.D.